

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**



**UrDU “Iqtisodiyot” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, AQSh  
NYU – YORK Fanlari Akademiyasi haqiqiy a’zosi, mintaqaviy iqtisodiyot sohasida  
xalqaro ekspert  
BAXTIYOR RUZMETOVning 75 yilligiga bag‘ishlangan**

**“MINTAQANI BARQAROR VA KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH  
ZAMONAVIY MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA  
AXBOROT XATI**



**11-12- sentyabr, 2025-yil  
Urganch , O‘zbekiston**

## AXBOROT XATI

### HURMATLI HAMKASBLAR!!!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish Strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mintaqani barqaror va kompleks rivojlantirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, 2025 yil 11-12- sentyabr kunlari Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, AQSh Nyu – York Fanlari Akademiyasi haqiqiy a'zosi, mintaqaviy iqtisodiyot sohasida xalqaro ekspert BAXTIYOR RUZMETOVning 75 yilligiga bag'ishlangan **"Mintaqani barqaror va kompleks rivojlantirish zamonaviy muammolari"** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tadi.

#### **Xalqaro konferensiyaning maqsadi:**

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi — zamonaviy global va mintaqaviy o'zgarishlar sharoitida hududlarning barqaror va kompleks rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg'or ilmiy g'oya va takliflarni ilgari surish, shuningdek, xalqaro hamda mahalliy tajribalar asosida amaliy yechimlar ishlab chiqishga xizmat qilishdan iborat.

Konferensiyada mintaqaviy iqtisodiyot, ijtimoiy infratuzilma, ekologik barqarorlik, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy modellashtirish va boshqa shu kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mintaqani kompleks rivojlantirishga oid strategik yondashuvlar, metodologik asoslar va boshqaruv mexanizmlarining takomillashtirishga ham e'tibor qaratiladi.

Konferensiyada mintaqaviy rivojlanish sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, tajribali mutaxassislar va soha amaliyotchilari o'rtasida ilmiy hamkorlikni kuchaytirish, tajriba va bilim almashuvini yo'lga qo'yish hamda ilmiy-amaliy takliflarni davlat va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Ilmiy-amaliy konferensiyada quyidagi yoʻnalishlardagi ilmiy-tadqiqot natijalari boʻyicha muhokamalar oʻtkaziladi va maqollalar (tezislar) qabul qilinadi:

1-shoʻba. Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari (Moderator: *prof.A.Qodirov, dots.Sh.Ruzmetov*)

2-shoʻba. Mintaqani kompleks rivojlantirish metodologik asoslari va ustuvor yoʻnalishlari (Moderator: *prof.B.Ruzmetov, prof.D.Xudayberganov*)

3-shoʻba. Mintaqada barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish taʼmoyillari (Moderator: *prof.F.Egamberdiyev, dots.M.Avezov*)

4-shoʻba. Mintaqa iqtisodiy tizimini modellashtirish (Moderator: *prof.I.Abdullayev, dots.D.Bekjanov*)

5-shoʻba. Mintaqa raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yoʻnalishlari (Moderator: *prof.X.Muxiddinov, dots.Sh.Baxtiyarov*)

***Xalqaro konferensiyaning rasmiy tillari: oʻzbek, rus, ingliz.***

Anjumanga xalqaro va xorijiy tashkilotlar ekspertlari, oliy taʼlim muassasalarining professor-oʻqituvchilari, yosh olimlar, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar, taʼlim boshqaruvi organlari vakillari tomonidan taqdim etilgan maqolalar qabul qilinadi. Konferensiya materiallari toʻplam va elektron shaklda nashr etiladi.

Maqolalar 2025-yil 8-sentyabrgacha **shahzod1335@gmail.com** elektron manzili yoki +998906787912 (Mahmatrayimov Shahzod) telegram manziliga yuborilishi mumkin.

***Konferensiya tashkiliy qoʻmitasining manzili:*** Urganch davlat universiteti, Oʻzbekiston Respublikasi, Urganch shahri, X.Olimjon koʻchasi, 14-uy (indeks 220100). Tel.: +998972119155 Avezov Mirzobek

**Xalqaro konferentsiyasi uchun maqola taqdimoti:**  
**“Mintaqani barqaror va kompleks rivojlantirish zamonaviy muammolari”**

| <b>Ariza formasi</b> |                                 |  |
|----------------------|---------------------------------|--|
| <b>1</b>             | Davlat Mintaqa                  |  |
| <b>2</b>             | Muallif (hammuallif) Ish joyi   |  |
| <b>3</b>             | Lavozim                         |  |
| <b>4</b>             | Ilmiy daraja, ilmiy unvon       |  |
| <b>5</b>             | Xalqaro konferensiya yo‘nalishi |  |
| <b>6</b>             | Maqola sarlavhasi               |  |
| <b>7</b>             | Aloqa telefon raqamlari         |  |
| <b>8</b>             | Elektron pochta manzili         |  |

**Maqolani rasmiylashtirish talablari:**

Maqola annotatsiya, kalit so‘zlar va asosiy matndan (kirish, asosiy qism, natijalar va xulosa) iborat bo‘lishi va quyidagi texnik talablarga muvofiq tayyorlanishi kerak:

- annotatsiya 3 tilda (o‘zbek, rus va ingliz) 5-7 qatorli konspekt;
  - kalit so‘zlar 5-8 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak;
  - maqola matnining “Times New Roman” shrifti, 14 o‘lcham, kirill yoki lotin alifbosi;
  - qatorlar orasidagi masofa sahifaning chap tomonida 3 sm, yuqorida va pastda 2 sm, o‘ng tomondan 1,5 sm qoldirib, 1,5 oraliq bo‘lishi kerak;
  - Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati foydalanilgan manbalar ketma-ketligida tuziladi, adabiyotlardan iqtiboslar foydalanilgan adabiyotlar sonini kvadrat qavs ichiga qo‘yish orqali belgilanadi, masalan: [2] yoki [2, 28 c], (iqtiboslar qabul qilinmaydi);
  - maqolaning umumiy hajmi 3 betdan kam va 7 betdan oshmasligi kerak;
  - Maqoladagi g‘oyalar jadval yoki rasm ko‘rinishidagi dalillar bilan tasdiqlanishi kerak. Jadvallarning sarlavhalari ularning yuqori qismida, chizmalarning sarlavhalari yoki chizmalarning pastki qismida ularning manbasini aniq ko‘rsatgan holda yozilishi kerak;
  - maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin;
  - maqola mazmuni konferensiya maqsadi va uning yo‘nalishlariga muvofiq, tahlil va dalillarga asoslangan holda yozilishi;
- Maqolada hammualliflar soni 2 tadan oshmasligi kerak. Har bir muallifdan faqat bitta maqola qabul qilinadi.

Konferensiya safar xarajatlari (xorijiy va boshqa viloyatlardan qatnashuvchi) ishtirokchilarning o'z hisobidan qoplanadi.

Maqolalarning to'lov badali har bir maqola uchun 100 ming so'm (Google Scholar tizimi uchun). Xorijlik mualliflar uchun bepul.

O'tkazmalar uchun: **9860 0101 3394 0212** Mahmatrayimov Sh

**Eslatma!** Maqola matni tahrir qilinishi mumkin emas va original deb hisoblanadi. Maqolalar plagiatga qarshi tizim orqali tekshiriladi. Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif shaxsan javobgardir.

Ta'kidlash joizki, taqdim etilgan maqolalar yuqoridagi talablarga to'liq mos ravishda tayyorlangan bo'lishi kerak.

*Yuqoridagi talablar asosida tayyorlanmagan, konferensiya maqsad va yo'nalishlariga mos kelmaydigan maqolalar ko'rib chiqilmaydi, ekspertizadan o'tmagan maqolalar nashr etilmaydi, to'plamga kiritilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.*

**Manzil:** Urganch shahar, H.Olimjon ko'chasi 14-uy.